

## TA'LIM SOHASIDA TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI NATIJALARI

Ashurova Sitora Erkinovna  
Qarshi muhandislik iqtisodiyot  
instituti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10065919>

Zamonaviy ta'lism texnologiyalari tez suratda rivojlanishi bilan birga uzlusiz ta'lism sohasi doimiy ravishda yangilanib turadi va ta'lism sohasidagi nazariyalar, jarayonlar, yo'naliishlar, metodlar, boshqaruvlarda ulkan rivojlanishga olib keladi. Uzlusiz ta'lism sohasida zamonaviy ta'lism texnalogiyalar rivojlanishi va uni tatbiq etish o'rtasida yaqin o'xshashlik mavjud.

Professor Nan Guonang keltirib o'tganidek zamonaviy texnologiyalar bu nazariya va nazariyalarni amalda muvaffaqiyatli foydalanish, shu bilan birga samarali o'qitishga erishish uchun ta'lism jarayoni va ta'lism manbalarining dizayn, rivojlantirish, foydalanish, baholash va boshqaruv sohalarida zamonaviy axborot texnalogiyalaridan foydalanishni amalda qo'llashdir. Hozirda zamonaviy ta'lism texnologiyasi o'z ichiga elektron video va audio texnologiyalarni sun'iy yo'ldosh, radio va televizor texnalogiyalarni, kampyuter multemidea texnologiyalarni, internet va aloqa texnologiyalar va boshqalarini o'z ichiga oladi. Shu bilan birga bu texnologiyalarni jarayonga keng tadbiq qilish uzlusiz ta'limning g'oyasi, yo'naliishi, metodi, jarayonlar va boshqaruvlarga ta'sir ko'rsatishi isbotlanib kelinyapdi.

Birinchidan, zamonaviy o'qitish texnologiyalar ta'lism kansepsiyasini haqiqiy bo'lishiga yo'l ochadi. Radio va televizor universiteti, masofaviy ta'lism, internet mashg'ulotlari va boshqa ochiq ta'lism turlari orqali katta miqdordagi ilmga chanqoq o'rganuvchilar osongina ilm olish imkoniyatlariga ega bo'ladi.

Ikkinchidan, zamonaviy ta'lism texnologiyalari o'tmishdagidek o'qituvchi va talaba o'rtasidagi munosabat bilan cheklanib qoolmasdan o'qituvchilar va talabalar, talabalar va o'qitish manbalari, talabalar va talabalar o'rtasida munosabatni ham yo'lga qo'yadi. Ta'lism elementining o'zgarishi mustaqil ta'lism olishni rivojlanishida ijobjiy natija beruvchi ijobjiy faktor hisoblanadi.

Uchinchidan, zamonaviy o'qitish texnologiyalari uzlusiz ta'limni qo'shimcha manba sifatida kengaytiradi. Davomli o'rganish, turli joylarda va har qanday vaqtda o'rganish samarali ta'lism olishni muvaffaqiyatli belgisi hisoblanadi.

To'rtinchidan, zamonaviy ta'lism texnologiyalari qat'iyat bilan o'qitishning samarasini va ta'sirini yaxshilaydi. Bu ta'lism texnalogiyalarga bo'lgan yuqori murojat ishtirokchilar sonini tezda oshiradi va O'zbekiston ta'lism sistemasini yanada yuksalishiga ko'maklashadi.

Zamonaviy jamiyatda uzlusiz ta'lism olish borasida o'ziga xos talablar mavjud. Ishchilar uchun o'zlarini ishlash joylarini tark etmasdan o'rganuvchi ta'lism kerak, shuningdek texnik ishchilar guruhining ishlash vaqtлari belgilangan bo'lib o'qish uchun esa ma'lum bir vaqt kerak bo'ladi. Zamonaviy texnologiyalar ularni ishlarini tark etmasdan o'qish imkoniyatini beradi. Shu sababdan ham turli xil sharoitlardan kelib chiqib uzlusiz ta'lism yo'naliishlariga har xil ehtiyojlar mavjud.

Zamonaviy ta'lism texnologiyalarining yagona o'qitish metodi turli xil o'qitish metodlariga o'zgaradi. Masofaviy ta'lism ish joylarini tark etmasdan o'rganish imkoniyatini beradi. Xotirasidagi turli xil o'qitish kurs kitoblari bir qo'ldan ikkinchi qo'lga o'tadi va o'rganuvchilarning o'rganish ehtiyojlarini topishga ko'maklashadi.

Talabalarni innovatsiyasini va o'rganish ta'sirini yaxshilash uchun turli xil o'qitish metodlari talabalarni o'rganish jarayoniga jalb qilish uchun yo'l boshlovchi sifatida va ilm olishga undash maqsadida yaratilishi kerak.

Zamonaviy texnologiyalar yordamida an'anaviy ma'ruza uslubi va doskalarda tushuntirish usullari mustaqil izlanib o'rganish metodlariga almashtiriladi. Zamonaviy ta'lim uslublari uzlusiz ta'limning liberallashuviga yordam beradi.

Uzlusiz ta'lim jarayonida mashg'ulot ishtirokchilari zammonaviy kursni faollik bilan o'rganishadi. "Mobil o'rganish" tushunchasi uzlusiz ta'limni tushunishni chuqurlashtiribgina qolmasdan o'qitish jarayonini an'anaviy sinfxonalarda ta'limning passiv holatidagi zanjirlaridan forix qiladi. Mustaqil o'rganish bilimga tayangan iqtisodiyotning muammolarini erkin hal qilish qobilyatini o'stiradi.

Bundan tashqari zammonaviy idoralarning tarmoqlari va axborot tizimlari o'qituvchilar va o'quvchilarning kutubxonasini uzlusiz ta'limning o'qitish materiallarini yaxshilaydi. Yuqori tezlikdagi ta'limga integrallashgan zammonaviy menejment kerak. Faqatgina qoidaga aylangan boshqaruvi bilan uzlusiz ta'lim yanada ko'proq samarali va yuqori o'sishga erisha oladi.

O'zbekistonning uzlusiz ta'limida oxirgi yillar ichida ko'pgina diqqatga moyil ishlarga erishildi. Zammonaviy texnologiyalarning yordami orqali uzlusiz ta'lim o'qish kansepsiyalari, menejment, o'qitish metodlari, manbalari va boshqa aspektlarni yaxshilaydi.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalarning rivijlanishi yo'lida yangi g'oyalar va yangi texnologiyalar uzlusiz ta'lim uchun juda muhimdir. Uzlusiz ta'limning rivojlantirilishini anglash uchun zammonaviy ta'lim texnologiyalar barcha o'rganuvchilarga xizmat qilish yo'lida keng murojat qilinishi kerak. Uzlusiz ta'limdagi o'qitish texnologiyalari va jalb etuvchi yuqori ijtimoiy hamkorligini kuchaytirilishi birinchi sinf uzlusiz ta'lim tarmoqlarini samarali qurilishga yordam beradi.

Internet bilan bog'liq zammonaviy masofaviy ta'lim ta'lim globallashuvi uchun imkoniyat yaratdi. O'zbekistonda ta'limni xalqaro o'qitish standardlariga ega bo'lishi ta'lim samaradorligini bir qadam oldinga rivojlanishi bilan taqqoslanadi. Ushbu yo'lda zammonaviy texnologiyalarning qulayliklaridan foydalanish, chet el ta'lim manbalarini tadbiq etishi va yo'lga qo'yilishi kerak. Uzlusiz ta'lim boshqaruvida zammonaviy ta'lim texnologiyalardan foydalanish quyidagi samaralarni beradi.

Moslashuvchan va ochiq menejment siyosati turli xildagi ma'lumotlar va o'rganish ehtiyojlariga ega bo'lgan o'rganuvchilar uchun erkin muhit yaratadi. Axborot texnologiyalar boshqaruvi metodlari o'qitish sifatini nazorat qilish tizimini qurishda axborot texnologiyalar boshqaruvi metodlariga murojat oliy ta'lim tizimini kuchaytirishga yordam beradi va uzlusiz ta'lim sifatini yaxshilaydi.

Uzlusiz ta'lim marketing modeli zamonaviylashtirilish lozim. Shuni aytishimiz kerakki uzlusiz ta'limning ehtiyojlari juda yuqori. tashkilotlarda bu ehtiyojlarni qondirish uchun yetarlich o'qitish manbalari bo'lmasligi mumkin. Barcha o'qitish manbalarga ega bo'lish va ko'p o'quvchilarga xizmat qilishni yo'lga qo'yish uchun zammonaviy texnologiyalarga murojat qilishimiz kerak. Yangi internet texnologiyalari rivojlantirilishi lozim. Misol uchun, internet orqali saytlardagi jonli mashg'ulot efirlari bir necha ming ishtiyoqmandlar uchun foydalni bo'ladi.

O'qitish metodik innovatsiya uzlusiz ta'limga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu nafaqat o'qitish jarayoniga balki mashg'ulot ishtirokchilarining rivojlanish zehniga ham ta'sir ko'rsatadi.

Talabalar texnalogiyalar bilan hamnafas bo'lgan holda zerikarli auditoriyalarda emas balki zamonaviy texnalogiyalar bilan bezatilgan sinfxonalarda sohalariga oid ma'ruzalarni videolar orqali jonli aksini ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Resurs innovatsiyasi dizayning, rivojlanish, foydalanish, baholash va o'qitish manbalarini boshqarishni ta'minlab beradi. O'qituvchi o'qitish manbalarining asosi hisoblanadi. Uzluksiz ta'limda 3 turdag'i o'qituvchilar bor. Tizimli nazariya va o'qitish metodlariga ega universitet o'qituvchisi. Ikkinci turdag'i o'qituvchilar sirasiga esa mashhur olimlar yoki muammolarga noodatiy yechim bera oladigan ijtimoiy sohada boy malakaga ega bo'lgan insonlar. Boshqa turlarga esa mamlakatdagi va chet ellik eksportlar keradi.

Ta'lim sohasiga mukammal kurslar va qiziqarli o'qitish manbalar almashinuvi keng yo'lga qo'yilishi kerak. Zamonaviy axborot texnologiyalar, shuningdek internet va uning tarmoqlari maktablar va tashkilotlarda ta'lim manbalarini hamkorligini yaxshilashga yordam beradi.

Innovatsianing mohiyati uzluksiz ta'limning doimiy rivojlanib borishini asosi hisoblanadi. Umuman olganda uzluksiz ta'lim yangi nazariyalar, yangi bilim, yangi texnologiyalar, yangi metodlarga o'z e'tiborini qaratgan. Shu bilan birga talabalarning nafaqat bilim olish balki o'tilgan mavzular yuzasidan o'zining ijodkorligini ham oshirishni yo'lga qo'yadi. Ta'lim texnologiyalar ta'lim sifatini oshirishda katta xizmat qiladi. Unda talabalar o'rganish bilan birga o'zlari ham shu sohaga yangilik kiritib borishadi. Har xil video kanferensiyalarning olib borilishi o'qituvchi va talabalarning bir biriga bog'liqligini yo'qotadi va talaba o'zi mustaqil olib borgan izlanishini talabalar bilan baham ko'rib, barcha talabalar uchun bir ma'ruza vazifasini bajaradi. Xulosa qilib aytishimiz mumkinki O'zbekiston ta'lim tizimi hozirgi kunda yuqori tezlikdagi rivojlanish bosqichida turibdi. Hozirgacha uzluksiz ta'lim rivojlanshida aynan zamonaviy texnologiyalardan foydalanish asosiy ko'makchi vazifasini o'tab kelyapdi. Bunday texnologiyalardan foydalanish ta'lim sohasini kelajakda yanada yuqori cho'qillarga olib keladi.

### References:

1. Nan Guonang. 'Zamonavuy texnalogiyalrning ta'lim sohasidagi o'rni' 2000.
2. [WWW.innovativeeducation.com](http://WWW.innovativeeducation.com)